

# “Korrupsiyaga qarshi kurashish virtual akademiyasi”da har qanday fuqaro ixtiyoriy ravishda bazaviy kurslarda ta’lim olish imkoniga ega bo’ladi.

**"AHOLI VA DAVLAT XIZMATCHILARINING KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH SOHASIDAGI BILIMLARINI UZLUKSIZ OSHIRISH TIZIMINI JORIY QILISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RISIDA"GI PREZIDENT QARORI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH AGENTLIGI**

**QARORGA KO'RA:**  
2025- yil 1-yanvardan "Korrupsiyaga qarshi kurashish virtual akademiyasi" elektron platformasi ishga tushiriladi.

**AGENTLIK:**

- o'quv jarayoni sifatli tashkil etilishini **monitoring** qilib boradi;
- yangi o'quv modullarini joriy etish bo'yicha Akademiyaga **takliflar** kiritadi;
- o'quv jarayoniga jalb qilingan davlat organlari va tashkilotlari bilan yaqindan **hamkorlik** qiladi;
- Akademiyaga bilan birgalikda har yili Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashiga Virtual akademiya faoliyati yuzasidan **axborot kiritadi**.

**VIRTUAL AKADEMIYADA O'QITILADI:**

- aholi, tadbirkorlik subyektlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va boshqa fuqarolik jamiyati institutlari vakillari;
- ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari, o'quvchilari va talabalari;
- davlat organlari va tashkilotlarining davlat xizmatchilari;
- davlat ishtirokidagi korxonalarining xodimlari.

**DAVLAT XIZMATCHILARIGA MAXSUS O'QUV KURSLARIDA MALAKA OSHIRISH MAJBURIY:**

- ishga qabul qilinganidan so'ng **3 oy ichida** o'quv kursidan o'tadi;
- malaka oshirishning **davriyligi har 3 yilda kamida bir martani** tashkil etadi.

**Komplayens-nazorat tuzilmalari va korrupsiyaviy xavf-xatarlar yuqori bo'lgan lavozimlardagi davlat xizmatchilari chuqurlashtirilgan o'quv dasturlari asosida o'qitiladi.**

o'qitish bazaviy (barcha foydalanuvchilar uchun **bepul**) hamda maxsus o'quv kurslari (to'lov-shartnoma asosida) bo'yicha yo'lga qo'yiladi.

Maxsus o'quv kurslarini muvaffaqiyatli tamomlaganlarga **sertifikat** beriladi.

[anticorruption.uz](http://anticorruption.uz) @antikor\_uzb @anticorruptionUzb @anticorruption.uz Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi

Barcha davlat xizmatchilari uchun Akademiyaning maxsus o'quv kurslarida har 3-yilda kamida bir marta korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida malaka oshirish majburiy.

Batafsil - yuqoridagi infografikada.

Agarda siz korrupsiyaga oid huquqbuzarlik holatlariga duch kelsangiz Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining "Call-markazi" - 1253 yoki eanticor.uz elektron platformasi orqali murojaat qilishingizni so'raymiz!

Termiz shahar hokimligi Axborot xizmati